

SO'NGI YILLARDA O'ZBEKISTONDA RO'Y BERAYOTGAN EKOLOGIK MUAMMOLAR, ULARNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Gozmamatova Laylo

1 – kurs bakalavr talabasi

gozmamatovalaylo@gmail.com

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Guliston davlat pedagogika institute

*Ustoz: **Berdikulova Mahbuba***

ANNOTATSIYA

Orol dengizi va Respublikamiz hududida yo'qolib borayotgan hayvon turlari haqida organadi. Respublika hududidagi chiqindi poligonlari va ularning tabiatga ta'siri, chiqindini qayta ishlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoritiladi.

Ushbu maqola Respublikamizda so'ngi yillardagi ekologik muammolar va ularning sabablari, oqibatlari,

ABSTRACT

This article examines the environmental problems in our Republic in recent years, along with their causes and consequences. It also explores the Aral sea and animal species that are becoming extinct in the territory of country. Additionally, the article highlights landfill sites within the republic and their impact on nature, as well as the efforts being made in waste recycling.

Kirish

Bugungi kunga kelib ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va yaxshilash eng dolzarb muammoga aylanib bormoqda . ayniqsa oxirgi 50 yilda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhitning keskin o'zgarishiga olib keldi.

So'ngi yillarda Respublikamiz hududida ro'y berayotgan ekologik o'zgarishlar , jumladan : havoda chang va ifloslanishning keskin darajada ortib ketishi, ha vo haroratining ko'tarilishi, yog'ingarchilikning nisbatan kamayishi va albatta Orol dengizi fojeasi bizga ogohlantirish bo'lib xizmat qilishi kerak.

Hozirda inson faoliyati ta'sirida “ibtidoiy sof tabiat” tushunchasini muomaladan chiqarayotgan bir qancha omillar bo'lib ulaarga qurilish va dehqonchilik tufayli yashil maydonlarning qisqartirilishi, tabiatga efarqlik natijasida ortib borayotgan chiqindi maydonlaari sanotni rivojlantirish bahonasida havoga to'g'ridan to'g'ri chiqarib yuborilayotgan zaharli tutunni misol qilib keltirish mumkin. Buning oqibatida esa havoning yuqori darajada ifloslanishi ba'zi

turdagi hayvon , hasharot, qush va o'simliklarining sonining kamayib ketishi yoki butunlay yo'qolib ketishi qurg'oqchilik va yong'in xavfi tobora ortib borayapti.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'ngi yillarda tilga olinayotgan O'zbekistondagi eng dolzarb muammolardan biri bu Orol dengizi hududining kichrayib borishidir. XX asr o'rtalarida Orol bo'yida 10ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ishlab turgan, Orol dengizidan yiliga 145 ming sentnergacha baliq ovlangan. 1981-yilda Orol dengizining 100 km dan ko'proq ichkariga chekinishi natijasida kemalar quruq qum ustida qolib ketgan. Tupruqning kuchli sho'rlanishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bir necha baroarga kamayib ketti. Yerlaning sho'rlanishi turar joylar , ma'muriy binolar va asfaltlangan yo'llarga kata ziyon keltirdi. 1986-yilda 78% turar joylar foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi. Bu halokat ichimlik suvlarini ifloslantirib , aholi o'rtasida kasalliklar kuchayishiga olib keldi. Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda yo'l qo'yilgan xatoliklar orol bo'yida ekologik falokatni keltirib chiqardi.

2025-yil noyabr holatiga ko'ra O'zbekiston havosining PM2.5 zarralari bilan ifloslanishi bo'yicha yuqori o'ntalikka kirdi. Unga dastlab mintaqada yog'ingarchilikning kam kuzatilganligi, sanoat va qurilish obyektlarining havoga to'g'ridan to'g'ri zaharli mtutunni chiqarishi, mintaqa aholisining xazon-rezgi paytida barglarni yoqib yuborayotgani va so'ngi yillarda yashil hududning keskin qisqarib ketgani sabab qilib olindi.

Ekologiyaning ifloslanishi natijasida biosferada yashayotgan hayvonlar eng ko'p aziyat chekdi desak to'g'ri bo'ladi. Savannada hayvonlar qurg'oqchilik, ovqat va suv yetishmovchiligidan, okean, dengiz va daryolarda suvning ifloslanishidan, Shimoliy qutbda iqli isishi va muzlar erishi tufayli hayvon turlari keskin kamayib va afsuski, ba'zilar yo'q bo'lib ketish darajasiga yetib kelgan. Buning asosiy sabablaridan biri plastic muammosi bo'lib , uning arzonligi va homashyo ekanligi va ko'pchilik holatda qayta ishlanmasligi atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'libgina qolmay, amchagina zarar yetkazmoqda. So'ngi tadqiqodlarga ko'ra Antarkdida muzliklarida hamda inson qonida plastic zarachalar toilgan. Hozirgi kunda okenlarda umumiy hisobda 5 ta yirik plastic chiqindilardan tashkil topgan orol bo'lib, ularning eng kattasini Fransiyaning yer maydoni bilan solishtirish mumkin. Eng achinarlisi esa bu orol kundan kunga kengaymoqda.

Respublikamizda chiqindini saralash va qayta ishlash qadam-ba qadam rivojlanayotgan bo'lsada bugungi kunda 200dan ortiq, jami 1 ming gektarga yaqin chiqindi poligonlari organik va noorganik chiqindilar jumladan: plastic paketlar – 100-500 yil , plastic butilkalar – 400-1000 yil, shisha (oyna) – deyarli 1mln yil, metall alyuminiy – 80-200 yil, konserva bankalari 50-100 yil, rezina – 5050-80 yilda mikroplastiklarga bo'linib, tuproq va suvni ifloslantirishda davom etadi.

Tabiatga be'etiborligimiz natijasida hayvonot olamiga yetkazgan zararimizni ko'rib chiqadigan bo'lsak; 2014-yili "Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi" e'lon qilgan hisobotda bayon qilinishicha, 1970 –yildan buyon Yer yuzidagi hayvonlar soni ikki baravar kamaydi.

Kaktakto portlali Markaziy Osiyo hududida ana shunday yo'q bo'lib ketish xavfiga yuz tutgan 10 turdagi jonzorlar turlarining ro'yxatini shakllantirib e'lon qildi. ULArning orasida yurtimiz qo'riqxonalarida saqlanayotgan Buxoro kiyigi' manus, qorakal, qulon, irbis, menzibira sug'uri, sayg'oq va chiroyli tuvaloq hamda oltin burgut kabi qushlar bor.

XULOSA

Sohaga oid yangi qonun loyihalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, uzliksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, aholi ekologik ma'daniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish va amaliyotga taqdim qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekistom Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonunni aholining iste'mol, maishiy va boshqa ehtiyojlari uchun suv ob'yektlaridan foydalanish qismining ijro etilishi yuzasidan Sog'liqni saqlash ham,da uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirliklari, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitalari axboroti yuzasidan parlament eshituvlarti bo'lib o'tadi.

Ko'rishimiz mumkinki ekologik muammolar bu faqatgina davlat tashkilotlariniki emas. Bu muammolarni muvaffaqiyatli tarzda hal etish har bir fuqaroning mas'uliyatli burchidir.

REFERENCE

1. O'zbekiston Rspublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil Toshkent.
2. Qayumov A.A Raxmonov R.N., Egamberdiyeva L.Sh, xamroqulov J.H. "Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish" . – T.: "Iqtisodiyot ", 2014
3. Kun.uz rasmiy sayti
4. Waqi.info rasmiy sayti ma'lumotlari
5. Quadratov O. sanoat ekologiyasi 2-nashr. Toshkent – 2003y.
6. Yormatova D. Snoat ekologiyasi. Toshkent – 2007y.